

MAKTAB PSIXOLOGINING TARG‘IBOT VA TASHVIQOT ISHLARINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Matyakubova Ma’rifat Saparbayevna

Xorazm viloyati Xiva tumani

36-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Allaberganova Dilnoza Davlatovna

Xorazm viloyati Xiva tuman

7-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi psixologning targ‘ibot va tashviqot ishlari, ularning mazmuni, shakllari hamda shaxs rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. Maktab psixologining o‘quvchilar, ota-onalar va pedagoglar bilan olib boradigan psixologik-ma’rifiy faoliyati, sog‘lom psixologik muhit yaratishdagi o‘rni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, psixologik targ‘ibot ishlarini samarali tashkil etish usullari va zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Psixologik xizmat, maktab psixologi, targ‘ibot ishlari, tashviqot ishlari, psixologik madaniyat, o‘quvchi shaxsi, ota-onalar bilan hamkorlik, pedagogik jamoa, psixologik profilaktika.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda maktab psixologining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, psixolog tomonidan olib boriladigan targ‘ibot va tashviqot ishlari o‘quvchilarning psixologik salomatligini mustahkamlash, shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim muassasasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maktab psixologi ta'lim muassasasida psixologik xizmatni tashkil etuvchi asosiy mutaxassis hisoblanadi. Uning faoliyati psixologik diagnostika, korreksion rivojlantiruvchi ishlar, maslahat berish, profilaktik faoliyat bilan bir qatorda targ'ibot va tashviqot ishlarini ham o'z ichiga oladi. Mazkur faoliyat yo'nalishi psixologik bilimlarni keng ommaga yetkazish, psixologik madaniyatni shakllantirish va turli salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan.

Targ'ibot ishlari psixologik bilim, tushuncha va tavsiyalarni o'quvchilar, pedagoglar hamda ota-onalar o'rtasida keng yoyish jarayonidir. Tashviqot ishlari esa insonlarda ma'lum bir ijobiy xulq-atvor, ongli munosabat yoki foydali odatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, maktab psixologi faoliyatining muhim qismini tashkil etadi.

Maktab psixologining targ'ibot ishlari avvalo o'quvchilarga qaratiladi. O'quvchilar shaxs sifatida shakllanish jarayonida bo'lganligi sababli, ularning ruhiy rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga doimiy e'tibor zarur bo'ladi. Psixolog tomonidan o'quvchilarga stressni boshqarish, o'z-o'zini anglash, muloqot madaniyati, konfliktlarni hal qilish, do'st tanlash, zararli odatlardan saqlanish kabi mavzularda ma'ruzalar, suhbatlar va treninglar tashkil etiladi.

Ayniqsa, o'smirlik davridagi o'quvchilar bilan ishlash alohida yondashuvni talab qiladi. Bu davrda shaxsda mustaqillik, o'z fikrini himoya qilish, emotsional beqarorlik va atrofdagilar bilan munosabatlarda turli qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Maktab psixologi targ'ibot ishlari orqali o'smirlarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, salbiy tengdoshlar ta'siridan himoyalaniish va to'g'ri hayotiy maqsadlarni belgilashga ko'maklashadi.

Maktab psixologining tashviqot faoliyatida ota-onalar bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. Ota-onalarning pedagogik va psixologik bilimga ega bo'lishi farzand tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Shu sababli psixolog ota-onalar uchun seminarlar, davra suhbatlari, individual maslahatlar va psixologik uchrashuvlar tashkil etadi. Ushbu tadbirlarda

bolalarning yosh xususiyatlari, oiladagi muloqot madaniyati, farzandlarda mas'uliyat hissini shakllantirish, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati kabi dolzarb masalalar muhokama qilinadi.

Pedagogik jamoa bilan olib boriladigan targ'ibot ishlari ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi shaxsining ruhiy barqarorligi, kasbiy motivatsiyasi va emotsional holati ta'lim sifati bilan bevosita bog'liq. Shu sababli maktab psixologi o'qituvchilar bilan kasbiy stressni oldini olish, emotsional zo'riqishlarni kamaytirish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, konfliktli vaziyatlarni boshqarish kabi mavzularda trening va seminarlar tashkil etadi.

Psixologik targ'ibot ishlarining samarali shakllaridan biri psixologik treninglardir. Trening jarayonida ishtirokchilar nafaqat nazariy bilim oladilar, balki turli mashqlar, rolli o'yinlar va amaliy vazifalar orqali yangi ko'nikmalarni shakllantiradilar. Treninglar o'quvchilarda jamoada ishlash, fikr almashish, muammoli vaziyatlardan chiqish va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Maktab psixologi targ'ibot va tashviqot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham foydalanadi. Psixologik burchaklar tashkil etish, eslatmalar, bukletlar, devoriy gazetalar tayyorlash, ijtimoiy tarmoqlar orqali foydali psixologik tavsiyalar ulashish bugungi kunning samarali usullaridan hisoblanadi. Bu usullar psixologik bilimlarning kengroq auditoriyaga yetib borishiga yordam beradi.

Psixologik targ'ibot ishlarining yana bir muhim yo'nalishi profilaktik faoliyat bilan bog'liq. Maktab psixologi huquqbuzarlik, zo'ravonlik, bullying, internet qaramlik, zararli odatlar va boshqa salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar tashkil etadi. Bunday faoliyat o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish va xavfli holatlardan himoyalanihiga yordam beradi.

Maktab psixologining targ'ibot va tashviqot ishlarida etik me'yorlarga rioya qilish muhim talab hisoblanadi. Psixolog har bir o'quvchi, ota-ona yoki pedagogning shaxsiy

qadr-qimmatini hurmat qilishi, sir saqlashi va individual yondashuv asosida ishlashi lozim. Bu esa mutaxassisga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Bugungi ta’lim tizimida maktab psixologining targ‘ibot va tashviqot faoliyati nafaqat ruhiy muammolarni oldini olish, balki sog‘lom va barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu faoliyatning to‘g‘ri tashkil etilishi o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, oiladagi va maktabdagi munosabatlarni yaxshilaydi hamda jamiyat uchun yetuk avlodni tarbiyalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Psixologik xizmat / M.G. Davletshin. – Toshkent, 2008.
2. Umumiy psixologiya / E.G‘. G‘oziev. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
3. Ontogenez psixologiyasi / N. Nishonova, G. Alimuhamedova. – Toshkent, 2013.
4. Pedagogik psixologiya / Sh. Do‘stmuhamedova. – Toshkent, 2011.
5. Counseling and Psychotherapy / Carl Rogers. – Boston, 1995.